

SIZ BAVOSIL KASALLIGI XAQIDA BILARMIDINGIZ ?

TUZUVCHI: MEXMANOVA MUNIRA

CHORTOQ ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI

JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI

XIRURGIYA VA REANIMATSIYA FANI

YETAKCHI O'QITUVCHISI

ANOTATSIYA : USHBU MAQOLADA BAVOSIL KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI,BELGILARI VA DAVOLASH PRINSIPI HAQIDA KENG YORITILGAN .

**KALIT SO`ZLAR :** Bavosil, anal soha to`g`ri ichak venoz kengayishi yallig`lanish jarayoni, shish konservativ davolash, operativ davolash .

BAVOSIL kasalligi bu -to`g`ri ichak va anal soha venalarining kengayishi va yallig`lanishi bilan kechadigan kasallik .Zamonaviy qarashlarga binoan gemoroyga gemorodial tugunlardagi xilma xil patologik jaroyonlarga oid deb qarash lozim. Qon ketish ,ichki tugunlarning tushishi, tromboz ,yallig`lanish va xokozolar bilan bog`liq nazariyalar mavjud. Gemoroy bilan voyaga yetgan insonlarning 10 foizi kasallanadilar.

BAVOSIL kasalligi bu -to`g`ri ichak va anal soha venalarining kengayishi va yallig`lanishi bilan kechadigan kasallik .Zamonaviy qarashlarga binoan gemoroyga gemorodial tugunlardagi xilma xil patologik jaroyonlarga oid deb qarash lozim. Qon ketish ,ichki tugunlarning tushishi, tromboz ,yallig`lanish va xokozolar bilan bog`liq nazariyalar mavjud. Gemoroy bilan voyaga yetgan insonlarning 10 foizi kasallanadilar.

Bavosil -gemorroy.To`g`ri ichakning pastki qismi, xususan orqa chiqaruv yo`li venalarining tugun-tugun bo`lib kengayishi. Intoksikatsiya, allergiya, mexanik ta`sirotlar:

venalarning o'sma, ayollarda homilali bachadon bilan ezilishi, uzoq muddat oyoqda yurib yoki o'tirib ishlash, ovqatga ruju qilish, alkogolizm, surunkali qabziyat, shuningdek ichki a'zolarining turli kasalliklari va boshqa sabab bo'ladi. B. avj olishida irsiy moyillik ham ma'lum ahamiyatga ega. Kechishiga ko'ra o'tkir, surunkali, qaytalaydigan, tugunlar orqa chiqaruv teshigida joylashishiga qarab tashqi, ichki va aralash xillari tafovut qilinadi. Orqa chiqaruv yo'li sohasida biror narsa tiqilgandek og'irlik, achishish, qichishish, ba'zan hojat chog'ida og'riq kuzatiladi; keyinchalik gemorroidal qon ketishi mumkin (najasda qon bo'ladi). Agar B.da gemorroidal tugunlar tiqilib qolsa yoki yallig'lansa, qattiq og'riq beradi, harorat ko'tariladi, qabziyat kuzatiladi. Vaqtida oldi olinmasa, uzoq vaqt qon ketib yurishi — kamqonlikka, ichki gemorroidal tugunlar tushishi yoki qisilishiga olib keladi.

B.ni davolashda vanna qabul qilish, og'riq qoldiruvchi shamcha qo'yish tavsiya etiladi, parhez buyuriladi. Og'irroq hollarda jarrohlik usuli qo'llanadi. B.ning oldini olish uchun qabziyatga yo'l qo'ymaslik; hojatdan keyin orqa chiqaruv teshigi sohasini iliq suv bilan yuvishga odatlanish, kam harakat kishilar badantarbiya bilan shug'ullanishlari lozim.

Sabablari:

- 1 Qabziyat
- 2 Uzoq vaqt o'tirib ishlash
- 3 Og'ir yuk ko'tarish
- 4 Homiladorlik va tug'ruq
- 5 .Kam harakatli turmush tarzi
6. Noto'g'ri ovqatlanish

Belgilari: Anus atrofida og'riq, achishish , ich kelganda yoki keyin qon kelishi,shish ,tuguncha paydo bo'lishi,og'ir xollarda tugunlarning tashqariga chiqib qolishi.

Turlari:

1. Ichki
- 2 .Tashqi

Ichki gemaroy- tugunlar ichkarida bo'ladi, ko'pincha og'riqsiz lekin qon aralash bo'ladi.

Tashqi gemaroy- tashqarida shish og'riq bo'ladi.

Gemorroyning davosi ikki xil: konservativ va xirurgik. Konservativ davodan maqsad mahalliy qon aylanishini yaxshilash, yallig'lanish jarayonlarini bartaraf qilish va og'riqni qoldirish. Dori preparatlari bilan gemorroyni butunlay tuzatib bo'lmaydi. Preparatlar yordamida faqatgina o'tkir va surunkali gemorroy simptomlari yengillashtirish, kasallik asoratlarini profilaktika qilish, operatsiyaga tayyorlash va reabilitatsiyada foydalanish mumkin. Asosiy davo usuli faqat va faqat jarrohlik amaliyoti hisoblanadi.

Davolash prinsipi: Konservativ davo – dori-darmonlar orqali, Maxalliy davo- shamcha ,maz qo'yish,venoyonik preparatlar,lazer koagulyatsiyasi, ligatsiya, va jarroxlik amaliyoti.Praktologlar maslaxatiga ko'ra ichni zo'rlab kelishiga yo'l qo'ymaslik, ich kelgandan so'ng iliq suv bilan yuvish.

Xojatxona qog'ozidan foydalanmaslik,fasfud maxsulotlaridan voz kechish , piyoda uzoq masofada yurish,va achishish og'riq va qon ketganda shifokor qabuliga zudlik bilan borish.Muntazam mashq qilish ichaklarning faoliyatini yaxshilaydi. Yuqori kalloriyali ovqat iste'mol qiling.

Operatsiyaga ko'rsatmalar:

- 1 3-4- darajali gamaroyda
- 2 Tez –tez qon ketish
- 3 Doimiy og'riq,
- 4 Dori darmonlar naf bermaganda

Operatsiya turlari:

Gemoroyektomiya- tugunlar to'liq olib tashlanadi.

Longo usuli- tugunlar yuqoriga tortib, qon ta'minoti kamaytiriladi.

Lazer bilan davolash- kam og'riqli tiklanish tezroq

Skleroterapiya ligatsiya usuli-yengil va o'rta bosqichlarida

Operatsiyaga tayyorgarlik: Proktolog ko'rigidan o'tish, qon taxlili ,EKG, ichaklarni tozalash, 8-10 soat ovqatlanmay turish.

Operatsiyadan keyin : 1-3 kun og'riq qattiq bo'lishi, parxez ovqatlar iste'mol qilish, og'riq qoldiruvchi va yaraga ishlov berish, 2-3 xaftada to'liq tiklanish

Agar gemaroy alomatlarini sezsangiz proktolog xuziriga borishni kechiktirmang. SHifokor ko'rsatmalarisiz maz shamchalar va xalqona usullardan foydalanish qat'iyan taqiqlanadi.

Oldini olish uchun tavsiyalar :Ich qotishga yo'l qo'ymaslik, og'ir yuk ko'tarmaslik, uzoq vaqt o'tirib qolmaslik,har kuni xarakat qilish achchiq va sho'r taomlardan voz kechish ,ko'p miqdorida suyuqlik ichish.

Asoratlari:

Anemiya;

Tromblangan gemorroy — bunda gemorroy tugunchasida qon to'planib tromb hosil qiladi. U esa o'z navbatida kuchli og'riq, yallig'lanishni keltirib chiqaradi.

Zero kasallikni davolagandan ko'ra uni oldini olgan afzaldir.

Foydaniladigan adabiyotlar :

1.A.J.Xamrayev – Xirurgiya va reanimatsiya

2.W.W.W.google. internet saytlari